

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeveva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабиринович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурбаев Отабек Джурбаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeve Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI

Nazarov Qilich Xolmuradovich

TDIU Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi, soliq va moliya
kafedrası assistenti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat bank, investitsion faoliyat, investitsion loyiha, yalpi ichki mahsulot, daromad, xorijiy amaliyot.

Аннотация: В статье рассматривается опыт зарубежных стран по совершенствованию инвестиционной деятельности коммерческих банков. Даны практические предложения и рекомендации по совершенствованию инвестиционной деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, инвестиционная деятельность, инвестиционный проект, валовой внутренний продукт, доход, зарубежная практика.

Abstract: The article examines the experiences of foreign countries in improving the investment activities of commercial banks. Practical suggestions and recommendations are given for improving the investment activity of commercial banks of the Republic of Uzbekistan.

Key words: commercial banking, investment activity, investment project, gross domestic product, income, foreign practice.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti rivoji va xalqaro integratsiyasida investitsion kreditlar muhim o'rin egallamoqda. Zero, investitsion kreditlar tijorat banklarining milliy va jahon moliya bozoridagi uzoq muddatli strategiyasini amalga oshirishda va uning vositasida xalqaro munosabat va tajribalarni rivojlantirishda eng muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar investitsion kreditlar bir qancha an'anaviy va zamonaviy kreditlash shakllarini o'zida mujassam etgan holda ulardan foydalanishda milliy, xorijiy va xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorliklarning o'rnatilishi va rivojlanishiga erishilayotganligi buni yaqqol tasdiqlamoqda. O'z navbatida, jahon amaliyotida rivojlangan davlatlarda investitsion kreditlash borasida yuksak rivojlanish va boy tajribalarga erishilib, xususan, "Germaniya davlatida jami asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida investitsion kreditlarning ulushi 49,5 foizni, AQShda 62 foizni, Buyuk Britaniyada 76,5 foizni tashkil etmoqda" ^[1]. Investitsion kreditlarga bo'lgan talab kundan-kunga oshib borayotgan bugungi kunda tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlash tizimini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda investitsion kreditlash amaliyoti sezilarli tarzda yuksalib bormoqda. Jumladan, "asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida tijorat banklarining investitsion kreditlarini ulushi so'nggi besh yilda (2017–2022 yy.) ikki barobardan oshib, 46,7 foizni" ^[2] tashkil etdi. Bu esa, asosan, respublikamiz tijorat banklarining investitsion faolligini oshayotganligi va jalb qilinayotgan xalqaro kreditlar miqdorining oshayotganligi bilan izohlanadi. Biroq, aksariyat tijorat banklarida investitsion kredit va uning zamonaviy shakllarini qo'llash tajribalari yetarlicha shakllanmagan. Shuningdek, tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi kuzatilmoqda. Banklarning investitsion kreditlash tizimidagi muammolarni ilg'or xorij tajribasi asosida hal qilishning zarurligi investitsion kreditlash tizimini takomillashtirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini tug'ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni (2019), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 9-yanvardagi PQ–4563-son



“O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ^[3] va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hamda yuqoridagi keltirilgan muammolarni hal qilish yo‘llarini va tijorat banklarida investitsion kreditlash tizimini ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan chuqur tadqiq etish muhim vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida investitsiyaviy faoliyatning samaradorligi va ularni rivojlantirish hamda baholash masalalari bilan ko‘plab xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlari shug‘ullanishgan. Mazkur masala bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik iqtisodchi olimlardan:

Rossiyalik iqtisodchi-olimlar M. V. Alikayeva, L. O. Aslanova va boshqalar fikrlariga ko‘ra, “Investitsion bank krediti, odatda, loyihaning qoplash muddatidan oshib ketmaydigan muddatga, qoidaga ko‘ra, bir yildan kam bo‘lmagan muddatga beriladi, tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari doirasida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar bilan hujjatli tasdiqlanishi lozim bo‘lgan maqsadli xarakterga ega bo‘ladi” ^[4] degan xulosaga kelishgan.

F. V. Mayk va V. Rong (2006) Investitsion loyihalardan samarali foydalanishda tashqi moliyaviy cheklolarni o‘rnatish kerakligini va shu asosda ichki investitsion loyihalarni rag‘batlantirishni taklif qilishgan. Bunda olimlar tashqi moliyalashtirish xarajatlari oshgan sari, naqd pul qiymati sezilarli darajada oshadi degan xulosaga keladi ^[5].

H. Uang, P. Liang, H. Li, R. Yanglar (2016) esa texnologiyali ishlanmalariga yo‘naltiriladigan investitsion loyihalar va ularning moliyalashtirish manbalarini, shuningdek ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish manbalari, ilmiy-tadqiqot, investitsiya riski o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishgan ^[6].

Bundan tashqari Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim T. Mazurina (2013) investitsion loyihalarni tijorat banklari kreditlari hisobidan kreditlashni rivojlantirish uchun quyidagi sharoitlarning mavjud bo‘lishini asoslab bergan:

- davlatning samarali investitsiya va sanoat siyosatining mavjudligi (moliyaviy resurslarni aniq joylashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda);
- investitsion loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni qisqartirish asosiy yo‘nalishi bo‘lgan investitsiyalar infratuzilmasini rivojlantirish;
- korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish ^[7].

I. Yudinaning (2013) ilmiy tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklarining investitsion kreditlash amaliyotini rivojlantirishning zaruriy sharti – bu risklarni diversifikatsiya qilish deb hisoblaydi ^[8].

O‘zbek olimlaridan professor N. Karimovning ilmiy ishida investitsion loyihalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishdagi asosiy muammolar sifatida tijorat banklarining investitsion kredit berish salohiyatini oshirish muammosi, tijorat banklarida investitsion faoliyatni moliyalashtirish risklarini boshqarish samaradorligining pastligi, tijorat banklariga investitsion loyihalar bo‘yicha mijozlar tomonidan taqdim etilayotgan biznes rejalarning texnik-iqtisodiy jihatdan yetarli darajada asoslanmaganligi va ularning banklar tomonidan talab darajasida tahlil etilmayotganligi hamda kredit shartnomalari tuzishdagi kamchiliklarning mavjudligi, hukumatning kafolati asosida olingan investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligining past ekanligi kabi omillarni keltirib o‘tgan ^[9].

Bugungi kunda mamlakatda tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyatini institutsional asoslarini takomillashtirish jarayonlarida bir qancha kamchiliklar mavjud. Shu sababli, tijorat banklarining investitsion loyihalarni kreditlash amaliyotidagi mavjud muammolarini aniqlash, xorijiy banklar kreditlash amaliyotining ustuvor tomonlarini amaliy tahlillar asosida o‘rganish, ularning bu sohadagi ilg‘or tajribalarini, O‘zbekistondagi tijorat banklari kreditlash amaliyotida joriy qilish yuzasidan aniq asoslanagan ilmiy takliflar taqdim etish, ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi hisobladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalarning qisqacha tavsifi:

- investitsion muhit jozibadorligini oshirishda banklarning rolini oshirishning ahamiyati, hamda banklarining investitsion faoliyatda ishtirokinining ahamiyati va rolini institutsional jihatdan asoslab berish;
- investitsion muhit jozibadorligini oshirishda banklarning banklarining roli va ularning institutsional huquqiy asoslarini o‘rganish;
- O‘zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining zamonaviy holati, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari va samaradorlik darajasini tahlil qilish;
- tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;
- investitsiya faoliyatida tijorat banklarini rivojlantirishning xorij tajribasini o‘rganish;
- investitsion faoliyatda tijorat banklarining ishtirokini faollashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.



TAHLIL VA ASOSIY NATIJALAR

Jahon moliya bozorini xalqaro miqyosda globallashtirish bozor deb tavsiflash mumkin. Jahon moliya bozori moliyaviy globallashtirish jarayoni mahsuli bo'lib, industrial mamlakatlarni umumjahon miqyosda iqtisodiy samaradorligini keskin oshirdi. Lekin bu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar rivojiga ijobiy ta'sirdan ko'ra ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatishi hozirda barchaga ayon bo'lib qoldi. Buning sababi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti industrial davlatlar iqtisodiyotiga ko'pdan bog'liqligida deb bilish mumkin.

Hozirda jahon moliya bozorlaridagi qimmatli qog'ozlarning oboroti xalqaro tovar aylanmasi (oboroti) hajmidan 60–70 barobar ko'p, bu ko'rsatkichning borgan sari ortib borishi tendensiyasini kuzatish mumkin. Bunda xalqaro portfel investitsiyalarining salmog'i bevosita investitsiyalar va xalqaro kreditlar hajmidan sezilarli katta bo'lib, bunga moliya bozorlarining iqtisodiyotdagi rolini oshib borishi sekyuritizatsiya jarayonlari va moliya injiniringini tez sur'atlar bilan rivojlanishi sabab bo'lmoqda.

Banklar faoliyatining mexanizmi, hossa va xususiyatlari evaziga moliya bozori tarkibida alohida segment – bank kapitali va xizmatlari bozori faoliyat yuritadi va rivojlanadi. Bunda ular kredit, pul vositalari bilan bog'liq operatsiyalar institutlari, moliyaviy resurslar va instrumentlar akkumulyatori va mos ravishda yirik investitsiyalar manbai, institutsional investor, professional emitent va vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytilganda, banklar moliya bozorining pul, valyuta va kredit (bank kapitali) segmentida tegishli operatsiyalarini bajaradi, fond instrumentlari segmentida esa qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq moliyaviy xizmat, emission va investitsion operatsiyalarni amalga oshiradi. Bundan tashqari banklar o'z faoliyatlari doirasida ko'chmas mulk bozorida va ipotekaviy xizmatlarni ham ko'rsatadi.

Hozirda rivojlangan mamlakatlardagi banklar operatsiyalari va daromadining 80 foiziga yaqin miqdori qimmatli qog'ozlar bozorida shakllanmoqda. Daromadining qolgan qismi esa traditsion bank operatsiyalaridan hosil bo'lmoqda. Bu holatni investitsiya banklari faoliyati misolida ko'rish mumkin.

Investitsiya banki – bu asosan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarga ixtisoslashgan kredit-moliya instituti. Uning maqsadi, moliya bozorlari orqali qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish, o'z mijozlarini (jumladan davlatni) uzoq muddatli kreditlash.

Investitsiya banklari mumtoz ma'nodagi banklardan farqlanib, oddiy banklarga o'xshash ko'p turdagi bank operatsiyalarini bajarmaydilar. Odatda, zamonaviy investitsiya banki hozirda na faqat fond bozorlarida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni bajaradi, balki kompaniyalarni birlashtirilishi (yutib borilishi) va o'zaro birlashishini tashkillashtirish, ipotekani va venchur kapitalini boshqarish bilan ham shug'ullanadi.

Aytish joizki, G'arb mamlakatlari qonunlari va statistikasida barcha moliyaviy institutlarni ularning asosiy funksiyalari bo'yicha farqlanadi. Lekin amaliyotda esa borgan sari tijorat va investitsiya banklari orasidagi farq yo'qolib bormoqda. Bunga misol qilib ko'rsatish mumkinki, masalan, AQShdagi tijorat banklari qonunchilik (1933 yildagi Glass-Stigal va qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlar) bilan o'rnatilgan to'siqlarni chetlab o'tib, o'z faoliyatlarini universallashtirish yo'lida bank xoldinglarini, investitsiya korporatsiyalarini tuzganlar va fond bozorida bilvosita faol qatnashganlar. Ko'p yillik bunday samarasiz cheklovchi tajribadan keyin hozirda (2001-yildan boshlab) AQSh banklariga fond bozoridagi qo'yilgan to'siqlar olib tashlangan [2].

Buning aksi sifatida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda banklarning faol qatnashishiga Germaniya misol bo'la oladi, bu yerda faqat tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar bilan barcha turdagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsat berilgan. Germaniyada sof ko'rinishdagi brokerlik firmalari yo'q. Odatda, investitsiya institutlari amalga oshiradigan barcha vazifalarni Germaniyada banklar bajaradi. Bu yerda banklar eng ko'p miqdorda obligatsiyalar chiqaradi, ular eng yirik sarmoyadorlar hisoblanadi, davlat qimmatli qog'ozlarining anderrayterlari sifatida chiqadi. Banklar, shuningdek, mijozlarning hisobidan va ularning topshirini bo'yicha hamda o'z shaxsiy hisobidan bitimlarni amalga oshirar ekan, fond bozorida vositachilik operatsiyalarini ham bajaradi. Ko'pgina hollarda ayni shu banklar fond birjalari a'zolarining umumiy tarkibini shakllantiradi [2].

Dunyoning bir qator rivojlangan davlatlari (Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Yaponiya va boshqalar)ning qonunchiligida esa so'nggi vaqtlargacha tijorat banklariga fond birjalari faoliyatida bevosita qatnashish man etilgan edi. Lekin Hozirgi vaqtda ushbu davlatlarning qonunchiligida tijorat banklarining fond birjalarida bevosita ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish bo'yicha jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda [2].

Investitsiya banklari turli mamlakatlarda ma'lum xususiyatlarga ega. Masalan, Buyuk Britaniyada–turli investitsiya kompaniyalari, savdo banklari. Bunda savdo banklari oddiy bank operatsiyalaridan tashqari, aksiyadorlik kompaniyalari, pensiya fondari, sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlarini boshqarish bilan ham shug'ullanadi.

Hozirda dunyoning eng yirik investitsiya banklari quyidagilar hisoblanadi: HSBC Holdings (Buyuk Britaniya), Chase Manhattan Corp. (AQSh), Credit Agricole Group (Fransiya), Citicorp. (AQSh), Deutsche Bank (Germaniya), Bank America Corp. (AQSh), ABN AMRO Bank (Gollandiya), Sumitomo Bank (Yaponiya), Dai-ichi Kangyo Bank (Yaponiya) va h.k.

Rossiya Federatsiyasida banklar qimmatli qog'ozlar bilan o'z operatsiyalarini amalga oshirishda qisman cheklab qo'yilgan. Masalan, Rossiya banklari xususiyashtiriladigan korxonalar aksiyalarini sotib oluvchi sifatida qat-



nashish huquqiga ega emas, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarida o'z sof aktivlarining 5 foizdan ortig'ini qo'ya olmaydilar, o'z mulkida biror aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining 10 foizdan ortiq qismiga ega bo'lishi mumkin emas.


Bugunga kelib jahon qimmatli qog'ozlar bozorida so'ngi 100 yillik ichida dunyo mamlakatlari ishtirokida keskin o'zgarishlarni ko'rish mumkin buning asosiy sababi shu mamlakatlarning iqtisodiy hamda siyosiy tomondan dunyo mamlakatlari orasida yaqqol ustunlik qilish hisobiga bu natijalarga erishmoqda desak xato qilmagan bo'lamiz. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar davlatlar o'rtasida kapitalni oqilona taqsimlanishini ta'minlayapdi. Bugungi kundagi jahon amalyoiga bir nazar tashlasak har bir yirik fond birjalarda qisqa vaqt mobaynida keskin o'zgarishlar sodir bo'layotganiga guvoh bo'lamiz buni bir nechta iqtisodiy va ijtimoiy sabablari mavjud. Fond birjalaridagi bu o'zgarishlar orqali qaysidir mamlakat iqtisodiyoti haqida baho berish va bashorat qilish mumkin. Masalan, qaysidir bir instrumentning bozordagi bahosini keskin tushib ketishi bu instrument emitenti qaysi mamlakatda faoliyat ko'rsatsa bu o'zgarish shu mamlakat iqtisodiyotidagi muammolardan kelib chiqqan bo'lishi mumkin va albatta umumiy iqtisodiyotga ham ta'sir qilish extimoli mavjud.

Bugungi iqtisodiy globallashgan jamiyatda dunyo moliya bozori, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar bozori bir nechta afzalliklari mavjud bo'lib, ulardan asosiysi shuki kapitalni mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishini taminlaydi. Bu esa nafaqat mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy shu bilan birga siyosiy munosabatlarni ham mustahkamlanishiga olib keladi. Agar dunyo amalyotiga nazar tashlasak bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishi judayam tezlik bilan rivojlanayotganiga guvoh bo'lamiz buning asosiy sabablaridan biri ishlab chiqarish korxonalarini ham iqtisodiy va texnik tomondan rivojlantirish va dunyo bozorida raqobatlasha oladigan mahsulot ishlab chiqarishni taqozo qilmoqda va bu jarayoni bartaraf etish uchun albatta resurs manbasini qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb qilinmoqda.

Ikkinchi tomondan yirik dunyo korporatsiyalarini daromadlik darajasini keskin oshishi va investorlar uchun investitsion jozibadorlikni yuqori bo'lishi va aholi ehtiyojlaridan ortiq jamg'armalarni ko'payishi ham dunyo qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanish uchun asosiy dastak bo'lib xizmat qilmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorini dunyo amalyotida rivojlanishi bu nafaqat shu mamlakat iqtisodiyoti uchun shu bilan birga uni xarid qilgan investorni mamlakati uchun ham samara keltiradi chunki qimmatli qog'ozdan olingan daromad xarajat sifatida iqtisodiyotda qo'shimcha talabni keltirib chiqaradi yoki jamg'arma sifatida bank omonatlariga jalb qilinadi va iqtisodiyotdagi pul aylanmasiga qo'shimcha kapital qo'shiladi.

Hozirgi vaqtda Xalkaro hisob-kitoblar Bankining rasmiy ma'lumotiga ko'ra, yetakchi industrial davlatlar bozorlaridagi moliyaviy operatsiyalarning 50 foizga yaqini o'nta yirik tijorat bankining hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur banklar o'zlarining ko'p sonli filiallari orqali dunyoning barcha qit'alarida faoliyat yuritadilar va birinchi navbatda, qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va rivojlanishiga kuchli va bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlar bozorida likvidli mablag'larning sezilarli qismi to'plangan. Xususan, London, Nyu-York, Tokio fond birjalarida moliyaviy aktivlar bilan amalga oshiriladigan xalqaro operatsiyalarning 56 foizi to'plangan.



1-rasm: Investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishda fond bozorining turli mamlakatlardagi kapitalizatsiyasi (%) ^[10].


Turli mamlakatlarning investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishda fond bozorida kapitalizatsiyasi dinamikasi turlicha ko'rsatkichlari tasvirlangan. 2020-yilda Investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishda fond bozori kapitalizatsiyasi bo'yicha eng yirik ulushga ega bo'lgan mamlakat bu AQSh tashkil qilgan bo'lib, uning ko'rsatkichi 52 % foiz ko'rsatilgan. Kapitallashuv darajasi bo'yicha keyingi o'rinlarda bu Buyuk Britaniya, Fransiya va Kanada tashkil qilib, ularning hisssasi mos ravishda 7,2, 3,1 va 3,3 ni tashkil qilganganini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, Xitoy ham keyingi yillarda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanish darajasi asta sekin rivojlanayotganini ko'rish mumkin. 50 yil oldin Xitoy dunyo fond bozorida deyarli ishtirok etmagan va kapitallashuv darajasi ham juda past ko'rsatkichni tashkil qilgan. 2020-yilda Xitoy fond bozori kapitallashuv darajasi anchaga o'sib uning ko'rsatkichi 4,8 tashkil qilgan (1-rasm).

Shunday qilib, banklarning jahon moliya bozoridagi faoliyat turlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

1. Banklar moliya bozorining quyidagi segmentlarida faoliyat yuritadilar: valyuta, qimmatli qog'ozlar, pul-kredit (jumladan ipoteka kreditlari), qimmatbaho metallar va toshlar (jumladan san'at asarlari).

Ko'chmas mulk bozorida vositachi, ishonchli boshqaruvchi (trast), ipotekaviy investor sifati faoliyat ko'rsatadi.

1. Valyuta bozorida: diler va broker (trejder, jumladan valyuta operatori). Bunda spot va muddatli bozorlarda ishtirok etadi.
2. Pul-kredit bozorida: pul hisob raqamlari va pul vositalari (cheklar, kartochkalar va h.k.) bo'yicha mijozlarga operatsion xizmat ko'rsatish; kredit berish va olish; bo'lak kreditorlarning kredit transhlari bo'yicha operator bo'lish va h.k.
3. Qimmatli qog'ozlar bozorida:
 - emitent (emissiyalanuvchi va emissiyalanmaydigan turlari bo'yicha);
 - institutsional investor (o'zining investitsiyalarini boshqarish bo'yicha) va kollektiv investor (mijozlarining investitsiyalarini boshqarish bo'yicha);
 - professional institut (broker, trayder, diler, anderrayter, trast, konsalting, depozitariy, transfer-agent va h.k.).



2-rasm: Dunyo mamlakatlari jahon qimmatli qog'ozlar bozoridagi ulushi¹ (% da) ^[2].

Dunyo qimmatli qog'ozlar bozorida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar tasvirlangan. Jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, Eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlat bu Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lib, uning hisssasi 2020-yilda 34,17 % ni tashkil qilgan. Keyingi katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar safiga Yaponiya, Buyuk Britaniya, Gongkong va Xitoy mamlakatlari bo'lib mos ravishda 7,90, 6,25, 5,94 va 5,78 % tashkil qilgan. Dunyo qimmatli qog'ozlar bozorida eng kichik ulushlarni tashkil qilgan mamlakatlar bular Kanada 3,39 % bilan, Fransiya 3,16 % bilan, Germaniya 2,91 % bilan, Avstraliya 2,37 % bilan va Hindiston 2,12 % bilan shu ko'rsatkichlarga erishgan (2-rasm).

Jahon moliya bozorini rivojlanishi yuqori tendensiyaga ega bo'lgan paytda turli mamlakatlarni Fond bozori kapitalizatsiyasidagi ham keskin o'zgarishlarga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Bu tendensiyalarni keskin o'zgarishi, albatta, shu mamlakatlarni iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan ham bog'liqdir.

1 Birja ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

1-jadval: Dunyo moliya bozorida yirik ulushli Top 10 investitsiya banklari ro'yxati ^[11]

№	Bank nomi	Tashkil topgan sanasi	Manzili	Daromadi
1	JP Morgan Chase	2000	New York, USA	USD 97,03 mlrd
2	Bank of America Merrill Lynch	2009	New York USA	USD 25,14 mlrd
3	Goldman Sachs	1869	New York USA	USD 41,664 mlrd
4	Citygroup	1812	New York USA	USD 70,17 mlrd
5	Morgan Stanley	1935	New York USA	USD 32,03 mlrd
6	Deutsche Bank	1870	Frankfurt, Germaniya	EUR 33,70 mlrd
7	Barclays	1690	London, United Kingdom	EUR 24,691 mlrd
8	Credit Suisse	1856	Switzerland	CHF 23,97 mlrd
9	UBS	1854	Switzerland	CHF 25,443 mlrd
10	Wells Fargo	1852	Californiya USA	USD 86,08 mlrd

Yuqoridagi jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, asosan qimmatli qog'ozlar bozorida yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar bu rivojlangan davlatlar bo'lib bu davlatlarda asosan qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanish darajasi bu to'g'ridan to'g'ri albatta iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari bu mamlakatlarda, chuqur iqtisodiy o'zgarishlar innovatsion g'oyalarni rivojlantirish va albatta texnika texnologiya sohasini rivojlantirish ham asosiy turtki bo'lgan omillardan biri desak xato bo'lmaydi (1-jadval).

Qimmatli qog'ozlar bozorining kapitalizatsiya darajasiga bevosita ta'sir qilayotgan asosiy omillardan biri qimmatli qog'ozlar taklifidagi jiddiy o'zgarishlar hisoblanadi. Bunda asosiy o'zgarish sifatida xususiy shaxslarga tegishli kompaniyalarni aksiyadorlik kompaniyalariga aylantirish jarayonining kuchayib borayotganligini qayd etish mumkin.

Biz tahlilimizni yanada chuqurroq yoritish maqsadida quyidagi jadval ma'lumotlar orqali turli mamlakatlar ni investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishda fond bozori kapitalizatsiyasi o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

Mamlakatlarning investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishda fond bozori kapitallashuv darajasi, albatta, shu mamlakat iqtisodiyotini o'sishi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Buni asosi sifatida yuqoridagi jadval orqali yaqqol ko'rish mumkin.

Yuqoridagi jadvalda dunyo moliya bozorida bugungi kundagi 10 yirik investitsiya banklari ro'yhati yillik daromadi bilan keltirilgan. Eng yirik investitsiya banklari orasida bu JP Morgan Chase bo'lib uning daromadi 97,03 mlrd dollorni tashkil qiladi. Undan keying o'rinlarda Citigroup va Well Fargo tashkil qilib, mos ravishda ularning daromadlari 70,17 mlrd va 86,08 mlrd dollar tashkil qilgan. Qolgan banklar kichik ulushga ega bo'lgan buning ularning daromadlari orqali ko'rish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, investitsiya banklari katta qismi bu Amerika Qo'shma Shtatlari ulushiga to'g'ri keladi. Bundan kelib chiqib Amerikada investitsiya banklari boshqa davlatlarga qaraganda ancha rivojlanganini ko'rish mumkin. Milliy korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining erkinlashtirilishi qimmatli qog'ozlar bozoridagi ular bilan bog'liq operatsiyalar hajmining sezilarli darajada o'sishiga olib keldi. Mazkur instrumentlar bilan amalga oshiriladigan xalqaro operatsiyalarning rivojlanishi jahon valyuta bozorining institutsional va tashkiliy tarkibiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. XX asrning 90-yillar, G'arbiy Yevropa fond birjalaridagi korporativ qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning 40 foizi yevropalik bo'lmagan emitentlar tomonidan chiqarilgan aksiyalar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu narsa e'tiborga molikki, tijorat banklarining korporativ qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalari ichida korporativ obligatsiyalar o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Korporativ obligatsiyalarga xos bo'lgan ikki muhim xususiyat mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- investorga kat'iy belgilangan foizda barkaror daromad keltiradi;
- sarflangan kapital qiymatining sezilarli darajada o'sishi yuz beradi.

Xalqaro fond birjalarida kotirovka qilinadigan korporativ qimmatli qog'ozlarning uchinchi turi korporativ tijorat qimmatli qorozlaridir.

Tijorat qimmatli qog'ozlari ta'minlanmagan qarz majburiyatlari hisoblanadi, shu sababli xalqaro fond birjalarida faqatgina yuqori reputatsiyaga ega bo'lgan emitentlarning tijorat qimmatli qog'ozlari sotiladi. Ayrim kompaniyalar tijorat qimmatli qog'ozlarining sotilishini tezlashtirish va bozor bahosiga ijobiy ta'sir qilish maqsadida ularni tijorat banklarining kredit liniyalari bilan yoki sug'urta tashkilotlarining kafolatlari bilan ta'minlaydilar.



AQShda tijorat qimmatli qog'ozlari odatda 45 kun muddatga chiqariladi. Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha hukumat hay'atining qayd etish talablaridan qochish maqsadida ushbu qimmatli kog'ozlarning qoplash muddati oydan oshmasligi lozim. Tijorat qimmatli qog'ozlari 25 ming, 50 ming, 100 ming, 250 minglik nominal qiymatga egadir.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarining uchinchi asosiy obyekti hosilaviy instrumentlar hisoblanadi. Hosila instrumentlari bilan bog'liq operatsiyalarning asosiy qismini opsionlar va fyucherslar bilan bog'liq operatsiyalar tashkil etadi.

Standart opsion shartnomalari bilan birjada savdo qilish birinchi-marta 1973 yilning-aprel oyida Chikago fond birjasida amalga oshirilgan edi. Bunda 16 aksiya bo'yicha uch xil muddatga kol opsionlar joriy etilgan edi. 1975–1976 yillarda kol opsionlar bilan savdo qilish Amerikaning boshqa fond birjalarida ham joriy etildi.

Shunisi xarakterliki, birinchidan, opsionlar yukori riskli instrumentlar toifasiga kiradi, ikkinchidan, u investorlarga aktivlar portfelining daromadlilik darajasini barkorlashtirish imkonini beradi.

Qimmatli kog'ozlar bilan fyuchers bitimlarini tuzish hozirga qadar xalkaro fond bozorlarida yuqori salmoqni egallaydi. Ammo ularning opsionga nisbatan investorlar uchun foydalilik darajasi past. Masalan, investorlar uchun fyucherslar bo'yicha majburiyatlarni bajarish majburiy hisoblanadi, opsionlar bo'yicha esa ixtiyoriydir. Ikkinchidan, fyucherslarda ta'minlanmagan fyuchers shartnomalari bo'yicha risk darajasi chegaralanmagan. Uchinchidan, bir qator yetakchi mamlakatlarda fyuchers operatsiyalari bo'yicha cheklovlar mavjud. Masalan, AQShda banklarga aksiyaga kilingan fyucherslar bilan savdo kilish Med-Jonson qonuniga ko'ra ta'qiqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Силантьев А. Э. Роль инвестиционного кредитования в РФ, США и ЕС // StudArctic forum. Выпуск 1 (13), 2019, DOI: 10.15393/j102.art.2019.3761. // <http://saf.petrstu.ru/journal/article.php?id=37610>.
2. Manba: <http://www.worldbank.org/> – sayt ma'lumotlari;
3. Manba: <https://lex.uz/> – sayt ma'lumotlari;
4. Аликаева М.В., Асланова Л.О. в.б. Стратегическое развитие малого бизнеса и формы поддержки индивидуального предпринимательства. Монография. – Нижний Новгород: Издательство НОО Профессиональная наука, 2018. – С. 68. // www.scipro.ru.
5. Faulkender, Michael W. W. and WANG, Rong. Corporate Financial Policy and the Value of Cash. (2006). Journal of Finance. 61;
6. Wang H., Liang P., Li H., Yang R. "Financing Sources, R&D Investment and Enterprise Risk" // Procedia Computer Science 91 (2016) 122 – 130 p. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877050916312303>;
7. Мазурина Т.Ю. Банковское инвестиционное кредитование: современное состояние, проблемы и перспективы развития// Деньги и кредит.–Москва, 2013.–№4.–С. 33;
8. Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография.–М.: ИНФРА-М, 2013.–С;
9. Karimov N. "Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari" mavzusidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2007. 7–10 b.;
10. Birja ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi;
11. Manba: www.investbank.com – rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi;
12. Manba: <https://dlib.eastview.com/browse/doc/34896577> – sayt ma'lumotlari;
13. Manba: <https://stat.uz/uz/> va <http://cbu.uz/oz/> saytlari ma'lumotlari;
14. Manba: <https://propercentinterest.com/procentnaya-stavka-v-germanii/>.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.